

This is not registered version of TotalDocConverter  
Eh this Kamroq.DJ.UZ

- Buncha xilvat ekan bu yer?
  - Ha! Bunday xilvat joylar savob ish uchun yaratilmagan!
  - Voy, nima qilyapsiz? Qo'lingizni oling. Erim bilib qolsa...
  - Tupurdim o'sha eringizga. Oshqovoq nima-yu, u nima.
  - Hamma erkaklar ham oshqovoq. Faqat, po'sti har xil.
  - Bahomni oshirib yubordingiz. Rahmat! Men ahmoq sizni tushlarimda ko'rib yuribman. Kecha tushimda hatto o'pib oldim. Mana bunday qilib...
  - Bo'ldi! Bas! - stolni shapillatib qichqirdi rejissyor. - Repetitsiya tamom!
- U grimxona sari borayotgan artist yigitning ortidan xo'mrayib qarab qo'ygach, "engiltak ayol roilda o'ynayotgan aktrisaga o'grilib, do'ng'illadi:
- Bugun sal kechiksam kerak. Qizchamizni bog'chadan olib, to'g'ri uyga jo'na.

#### Ko'nikib Ham Ketarsiz

- O'zi nima gap? Nega yig'layapsiz, singlim?
- Anavi uyatsiz chol...
- Xo'sh, xo'sh?
- Manavi yerimni...
- Xullas... tuf, - og'zidagi nosni purkab, bamaylixotir gap boshladi chol, - oyimtillaning o'sha joyini siypaladim. Siypalashga haqqim bor.
- Hm-m, bilasizmi... Sirasini aytganda, bizda odat shunaqa, singlim. Anavi ayollar ham dastlabki paytlarda sizga o'xshab qimtinib yurishardi. Mana endi, siypalash u yoqda tursin, hatto, kiyimingni yech desangiz ham... Qisqasi, sharoitga tezroq ko'nikishga urining...

Direktorning bu gapidan keyin, go'sht kombinatining tashmachilikka qarshi kurashuvchi qorovuli tantanavor qiyofada soqol silab qo'ydi.

1978